



BOLALAR KIYMINI KONSTRUKSIYALASH VA MODELLASHTIRISH

Nurboyeva N

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi Gijduvon tuman 2-son kasb hunar
maktabi maxsus fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Bolalar gavdasining antropometrik nuqtalari, o'lchov turlari Bolalar kiyimi detallarini shakli, hajmi, nisbatlarini, ularning joylashuvini aniqlash.

Kalit so'zi: Kiyimlar, bolalar, andoza, model, konstrukt, moda, loyiha, razmer, tikuvchilik, bolalaer.

Ularning joylashuvini aniqlay olish, bolalar kiyimini turli metodikalarda konstruktsiya chizmalarini chizish, zamonaviy model yo'nalishini taxlil qilish, bolalar kiyimi modellashtirish jarayonini bajarish, bolalar kiyimi detallari andozasini tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Kiyimning asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini chiqarish va unga bezaklar tanlash shu fanning asosiy maqsadidir.

Loyihalash – bu murakkab ijodiy jarayon bo'lib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek ularni o'zaro ulab-tikib, muayyan o'lchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida buyumning hajmli detallarini tekislikdagi tasvirini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Detallarning razmeri, soni va shakli ular yig'ilganda xuddi shu razmer va ko'rinishini beradi.

Kiyimlarni loyihalashda gavdadan o'lchov olish qoidalari va o'lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizish, so'ng chizmadan andoza chiqarib tayyorlash qoidalarini o'rgatiladi. Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug'ullanadi. Bular - modalar uyi tikuvchilik korxonalarining eksperimental tsexlari, maxsus



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

loyihalash idoralari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir.

Kiyimlarni modellashtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andozadan model andozasini tayyorlash yo'llari o'rgatiladi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo'yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andozasi hosil qilinadi. Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib, ularni bezatish yo'llari o'rgatiladi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo'ljallanganligiga qarab, bezak elementini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Kiyim odamzod rivojlanishining ilk bosqichlarida iqlim ta'siridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Uning keyingi rivojida turli tarixiy o'zgarishlar, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, milliy xususiyatlar va jamiyatdagi XIX asrning oxirlarida bolalar kiyimi alohida guruhga ajralib chiqdi. XX asrning o'rtalarida yoshlar kiyimlari guruhi paydo bo'lib, o'spirinlar va katta yoshlilar guruhlari o'rtasida o'z o'rin egalladi. Bu guruh o'z kiyimlariga ega bo'lib kattalar moddasiga nisbatan o'zgacha yoshlar madaniyatining paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti talablari, tadbirkorlikka ahamiyat, tikuv ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun berilayotgan bilimlar asosida o'quvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak Kiyimlarni loyihalashni bilish.. Kompyuter tizimini ishga tushirish. Axborotlarga ishlov berishni yangi usullaridan foydalanish.

Kiyimlar klafikatsiyasi va kiyimlar oldiga qo'yilgan talablarni bilishi. Kiyimlarni loyihalash uchun me'yoriy hujjatlarni o'qiy ola bilish va u asosda ishlashni tashkil qilish.

-Kiyimni loyihalash uchun gavddadan o'lchov olishni bilish.

-Kiyimni loyihalash uchun qo'shimchalarni to'g'ri tanlay olish.

-Konstruksiyalash usullarini yaxshi bilish.

-Loyihalash uchun hisob- kitob ishlarini bajarish.

-Hisob- kitob ishlari asosida kiyimni konstruksiya chizmasini chizish.

-Chizmadan foydalanib andozalar tayyorlash.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

Foylanilayotgan adabiyotlar

1. Jabborova M .SH. “Tikuvchilik texnologiyasi”, T “O’zbekiston, 2001
2. Litvinova I.N.,Shaxova Y.A “Ayollar ustki kiyimini tikish”,Legpromizdat 2002y.
- 3.Rasulova M.K.,”Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi” Toshkent,2006 y.
4. Truxanova A.T.”Tikuvchilik texnologiyasi asoslari” T., 2000 y.
5. TruxanovaA.T.,”Sprovochnik molodogo shveynika” Vosshaya shkola.,2003 g.
- 6.QulijonovaG.K., MusayevS.S “Yengilsanoatmahsulotlaritexnologiyasi”. Toshkent 2002 y.